

ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,  
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР  
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК  
МУАММОЛАРИ

## МАТЕРИАЛЛАР ТҮПЛАМИ

XV



DURDONA

tadqiqi ma'lum bir jamiyatga xos milliy mentallikni lingvistik jihatdan tahlil etish imkoniyatini beradi. B.V. Panfilovning ta'kidlashicha, "modallik kategoriyasi kabi turli-tuman, qarama-qarshi fikr bildirilgan va uning tildagi alohida ma'nolarining rang-barang tabiatichalik ko'p talqin qilingan kategoriya yo'q.<sup>1</sup>

Modallik kategoriyasi adabiyotning barcha sohalari: badiiy matnlarda, gazeta matnlarida, she'riy matnlarda, dialogik nutqda, ayniqsa, ertaklar matnida modallik kategoriyasining lingvokognitiv va lingvomadaniy, qolaversa, modallikning turli-tuman, rang-barang semantikasi tilning tipologik xususiyatlarini ochib berishga, shuningdek, ularni ifodalashda lisoniy vositalar ichki lisoniy dunyo manzarasining milliy xususiyatini aniq aks ettirishga, bir so'z bilan aytganda, til va madaniyatning o'zaro munosabatlari natijasi anglashga imkon beradi.

Shunday qilib, til va madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi, modallik kategoriyasining rivojlanishi, til va madaniyatning roli masalasi haqida fikr yuritar ekanmiz, bu muammolar ham muloqotning shakl va mahsulderligini e'stirishda, ham chet tillarni o'qitishda muhim ahamiyat kashbatadi.

Xullas, ma'lum bir tilda so'zlashuvchi kishi nafaqat til tashuvchisi, balki shu tilda so'zlashuvchi millat madaniyatning ham tashuvchisi vazifasini bajaradi. Shu sababda til millat vakilining milliy-madaniy mentalitetini namoyon etisi xususiyatiga egadir. Zero, lingvomadaniyat lisoniy faktlarini n'mnaviy madaniy xususiyatlari orqali tadqiq etiladi.

### **Qodirova Holida Xayriddin qizi**

*BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasи tayanch doktoranti*

## **BADIY DISKURSDA NOSAMIMIYLIKNING LISONIY SHAXS NUTQIDA VOQEALANISH XUSUSIYATLARI**

Maxsus badiiy manzarasini majoziy shaklda gavdalantirish qobiliyatidadir.

So'nggi yillarda tilshunoslik sohasida tilning yangi nazariyasini yaratish maqsadida turli yondashuvlarni kombinatsiya qilish

<sup>1</sup> Панфилов В.В. "Категория модальности и ее роль в конструировании предложения и суждения" 1977 г.

tendensiyalari kuzatilmoqdaki, bu til egasiga qarab, ushbu tizim bilan bog'liq faoliyatning pragmatik jihatlarini o'z ichiga oladi. Y.N.Karaulov ta'biri bilan aytganda, tadqiqot pafosining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi: "Har bir matn ortida lisoniy shaxs turadi<sup>1</sup>". M.V.Lyapon tomonidan aytilgan "Lisoniy shaxs kategosiyasi zamonaviy gumanitar fanlarning eng dolzarb ehtiyojlariga kollektiv tadqiqot ongingin tabiiy javobi sifatida ko'rib chiqilishi kerak" ushbu fikrlarga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Zero, ushbu kategoriyani amalda tadbiq etish orqali, tilshunoslik o'zining konseptual apparatining ajralmas qismiga aylantiradi va shu orqali shaxsni har tomonlama o'rganish bilan shug'ullanadigan fanlararo muammoli soha doirasidagi mavqeini mustahkamlaydi<sup>2</sup>

Zamonaviy ilm doirasida lisoniy shaxs konsepti shaxsni ko'p qirrali va ko'p qirrali tushunishning bir qismi, uning aqliy, ijtimoiy, axloqiy va boshqa tarkibiy qismlari til orqali sindirilgan shaxs tasvirining bir turi sifatida talqin qilish kerak. Lisoniy shaxsni tavsiflashda o'ziga xos ijtimoiy, guruh va individual xususiyatlarni hisobga olish lozim. Lisoniy shaxs tushunchasini o'rganish tothora xususiyashib bormoqda. Misol uchun, lisoniy shaxs yoki tartibda va nutqiy guruhning tarkibi sifatida harakatlana olishi mumkinligi Krisin L.P tomonidan, shuningdek, lisoniy shaxsning bosh va ikkinchi darajali bo'lishi mumkinligi haqida Xalyeva I.I., rus tiida lisoniy shaxs muammolari bo'yicha Yu.N.Karaulov, o'z tadqiqotlarida o'rgandilar.

Lisoniy shaxsni umumlashtiruvchi tushunchaga bo'lgan ehtiyoj allaqachon eskirib bo'ldi va buning natijasida so'zlovchi atamasi tilni u yoki bu tarzda ishlatuvchi so'zlovchi, tinglovchi, yozuvchi yoki o'quvchi sifatidagi shaxsni bildirish uchun ishlatila boshlandi (M.K.Hollidey, 1980 127).

O'zbek tilshunosligida badiiy diskursda lisoniy shaxs muammolari va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida N.Normurodova (2012) tadqiqot ishlarini olib borgan. Olma o'zining tadqiqot ishida badiiy diskursda lisoniy shaxs shaxsning ruhiy xususiyatlari, uning kommunikativ qobiliyati, bilimi, estetik va

<sup>1</sup> Каулов, Ю.Н. Русская языковая личность и задачи ее изучения / Ю.Н. Каулов // Язык и личность / отв. ред. Д.Н. Шмелев. - М.: Наука, 1989. -С. 3-8.

<sup>2</sup> Ляпон, М.В. Языковая личность: поиск доминанты / М.В. Ляпон // Язык — Система. Язык — Текст. Язык — Способность / отв. ред. Ю.С. Степанов. - М: Ин-т рус. яз. РАН, 1995. - С. 260-276

madaniy qadriyatlarining o'zaro lingvistik bog'liqligi sifatida qaraydi va V.V. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan lisoniy shaxsning ikki turi: muallif shaxsi va personaj shaxsini qayd etgan. Lisoniy shaxs turli xil kompozitsional shakllar bo'lgan tasvirlash, hikoya qilish va diskursning barcha verbal vositalar orqali namoyon etilishi mumkin. Ammo lisoniy shaxsning badiiy diskursda aks etadigan nutqi lisoniy shaxsni aks ettirishning eng ko'zga ko'rinarli usuli hisoblanadi (N.Normurodova, 2012)

Nosamimiylilik nosamimiylilik so'zlovchi tomonidan uning manfaatlariga hizmat qiluvchi, ya'ni maqsadiga erishishiga yordam beradigan bir vosita sifatida qabul qilinadi. Xuddi xushmuomalalik kabi, nosamimiylilik ham asl propozitsiyalar o'rniga yolg'onlarini ifodalashga bo'lgan xohishni ko'rsatuvchi inson tabiatining xususiyatlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Xuddi xushmuomalalik kabi nosamimiylilik ham nafaqat ma'lum bir toifa insonlarga, balki ijtimoiy guruhlar va butun boshli diskursiv hamjamiyatlag'a, masalan turli xil ijtimoiy institatlarga ham xosdir.

Nosamimiylilik lisoniy shaxsning strategiyasi hisoblanib, bu haqida X. Saks tomonidan isbotlangan yolg'onning obyektiv xarakteri haqidagi postulat bilan ham asoslash mumkin. U ham P.Braun va S.Livingstonning kitobidagi kabi o'z taqqi qoti nazariy asoslarini E.Goffmanning nazariyasidan o'zlashtirjan. H.Saks har qanday shaxs yolg'on so'zlashiga to'g'ri kelishini taqqiqlaydi. Uning fikricha, yolg'on – bu so'zlovchi tomonidan qanchalik ongli ravishda so'zlanayotganiga qarab tadbiq tilish mumkin bo'lgan hodisadirn (kitobning asl variantida avnan shu holatda gap aslida nosamimiylilik haqida ketgan). Har qanday inson yolg'on gapiresh majburiyatini o'zi istamagan holda bo'yniga lib qo'yishi mumkin bo'lgan holatga duch keladi. Masalan, undan "Ahvolingiz yaxshimi?" deb so'rashganda, adekvat javob sin'tida yolg'oni tanlashga va aslida ahvoli yomon bo'lsa ham, "yaxsh" deb javob berishga to'g'ri keladi. Olimning so'zlariga ko'ra, so'zlovchi bir qator savollarga javob berarkan, yolg'on gapireshga majburiyi jamiyatda "so'zlashuvchanlik" prinsipi mavjudligi orjasidan sodir bo'ladi. Bu prinsip implitsit holda ishlasada har doim diskurs yuzaga kelishida hisobga olinadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Sacks, H.A simplest systematics for the organization of tum-taking for conversation / H.A. Sacks // Language. Diversity and Diachrony. - Amsterdam, 1986.-424 p.

Makon va zamon ham axborotni yetkazishda haqiqat va yolg'on o'rtasidagi tanlovda katta rol o'ynaydi – agar u yoki bu yangilik, qoida tariqasida, ma'lum bir shaxsga yetkazilishi mumkin bo'lsa ham, hozir va shu yerdagi vaziyatda, ya'ni aynan ma'lum bir joyda va ma'lum bir vaqtida aytilishi mumkin emas. X.Saks yolg'onning obyektiv xarakteri haqida gapirarkan, "har bir inson yolg'on gapiradi" jumlasini "sen ham yolg'on gapirasan" qabulidagi qoida sifatida tushunib, bu qoida bajarilmasa, bir qator taqiqlarga duch kelish mumkinligini nazarda tutadi.

Shuningdek, X. Saks yolg'on ifodasini "odatiy holat" tushunchasi ichiga kiritadi. U mazkur tushunchani o'z vaqtini odatiy usullar bilan o'tkazish sifatida tushuntiradi. X.Saks "dunyoda oddiy odam bo'lish nimani anglatishini harakat sohasida ham, nutqiy harakatlarda ham tadqiq etish nazariyotchining vazifasidir" deya ta'kidlaydi. "Agar insonni shu jihatdan kuzatadigan bo'lsak, yolg'oni odatiy inson faoliyati deb olish mumkin, chunki inson tanlov erkinligidan foydalanayotgani uchun emas, ijtimoiy va shaxsiy zaruratdan kelib chiqganligi jihatidan yolg'on gapiradi. Inson odatdagagi shaxslar ham aynan shu holatlarda yolg'ondan foydalanganliklari uchun yolg'on gapiraveradilar".<sup>1</sup>

"Odatiy holat" tushunchasi zamonaviy ildasafadagi mavjudlik usuli tushunchasiga to'g'ri keladi. Shunday fikr mavjudki, haqiqat bo'yicha ish ko'rish – tiriklikning birinchi usuli bo'lsa, yolg'on bo'yicha ish tutish – ikkinchi uslubdir. Bu etma haqiqat nutq onogenesida birlamchiligi va psixologik chizmada nafzalroq ko'riliishi bilan izohlanadi. Agar insonlar faqat yolg'unga moslashganlarida, ular dunyoni kuzatishlari, mushoh da qilishlari mumkin bo'lardi xolos, ular dunyoni bunyod qilolmasdilar. Shunga qaramay, yolg'on tiriklik oqimidagi odatiy faoliyat bo'lib qolaveradi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilshunoslik yolg'on bayonotni to'laligicha bartaraf eta olmaydi. Til emas, balki shu tilning sohibi bo'l mish lisoriy shaxs o'zi foydalanayotgan til orqali boshqalarni aldaydi, uning ifodi va stilistik vositalaridan yolg'on so'zlashda foydalanishadi. X.Vaynrix ta'kidlaganidek yolg'on inson nutqida shunchalik katta rol o'ynaydiki, "haqiqatga deyarli o'rin yo'q".

<sup>1</sup>Sacks, H.A simplest systematics for the organization of turn-taking for conversation / H.A. Sacks // Language. Diversity and Diachrony. - Amsterdam, 1986.-424 p.

Yolg'on insoniyatning lingvistik ongiga va nutqiga, xuddi metastazlar kabi shunchalik chuqr kirib boradiki, odamlarda allaqachon yangi kasallik - mifofobiya - beixtiyor yolg'on gapirishdan qo'rqish paydo bo'lgan va shuning uchun ba'zi lisoniy shaxslar odatda gapirishdan va boshqa lisoniy shaxslar bilan muloqot qilishdan qochishadi yoki muloqot jarayonida turli startegiyalardan foydalanishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Нормуродова Н.З. Художественный дискурс и языковая личность в свете актуальных лингвистических направлений: парадигмы знания, основные принципы и тенденции развития // Вестник БГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2015
2. Karaulov, Yu.N. (1989). Russian language persona and the tasks of its study. Moscow: Language and Personality.
3. Sacks, H.A simplest systematics for the organization of turn-taking for conversation / H.A. Sacks // Language. Diversity and Diachrony. - Amsterdam, 1986.-424 p.
4. Sacks, H.A simplest systematics for the organization of turn-taking for conversation / H.A. Sacks // Language. Diversity and Diachrony. - Amsterdam, 1986.-424 p.
5. SH.Usmonova, 2019. "Lingvokulturalogiya", darslik-T; 2019, 178-180
6. Караполов, Ю.Н. Русская языковая личность и задачи ее изучения / Ю.Н. Караполов // Язык и личность / отв. ред. Д.Н. Шмелев. - М.: Наука, 1989. -С. 3-8.
7. Ляпон, М.В. Языковая личность: поиск доминанты / М.В. Ляпон // Язык — Система. Язык — Текст. Язык — Способность / отв. ред. Ю.С. Степанов. - М.: Ин-т рус. яз. РАН, 1995. - С. 260-276

**Usmonova Zarina Habibovna,**

**Senior teacher of English Linguistics Department**

### **THE MAIN FEATURES OF TYPES OF TRANSLATION**

Science fiction is frequently praised for its foresight into future technological developments. Some technologies, like the smart watches in The Jetsons, may be beneficial, while other instruments, like the absurd surveillance state in Nineteen Eighty-Four, may be detrimental. However, science fiction has the ability to both create and anticipate the

## MUNDARIJA

Расулов З.И., Сжатие речевой цепи как разновидность эллиптизирования .....	3
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna, Ibragimova Munojot Anvar qizi. Linguocultural analysis of imperative mood in “Pride and prejudice” by Jane Austen.....	6
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna, Mirzayeva Mohinur Zokir qizi. A comparative analysis of English and Uzbek languages of the separating the depth of desires .....	9
Rakhmatova Mekhriniso Musinovna, Azimjonova Elena Tulkunovna. Conversational implicature in English listening: an examination of videos and podcasts.....	12
A.A.Haydarov, M.Barnoyeva. So’zlararo ma’noviy munosabat turlari xususida .....	16
A.A.Haydarov, Sh. Sattorova. Ingliz va o’zbek tillarida fonologik uslubiy vositalar .....	19
A.A.Haydarov, M.U.Yodgorova. Inson tuyg’ulari ifodalanishining o’ziga xos xususiyatlari.....	24
Haydarov Anvar Askarovich, Tosheva Farangiz Bobomurodovna. Modallik kategoriyasi haqida ayrim mulohazalar ..	27
Qodirova Holida Xayriddin qizi. Badiiy diskursda nosamimiylilikning lisoniy shaxs nutqida voqealanish xususiyatlari .....	30
Usmonova Zarina Habibovna. The main features of types of translation .....	34
Shaxlo Quvvatova. Ingliz tarixiv asarlaridagi o’ziga xoslik .....	38
Saidova Mukhayyo Umedullaevna, Kosimova Nigina Shukhratovna. Gender peculiarities in analysis of non-verbal means of communication .....	42
Umurova Xushvaxt Xakimovna, Qahhorova Guli. External structure of a word in the English language.....	46
A.A.Haydarov, M.Alimova. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari .....	49
A.B. Kobilova, Aynedova Mahtob. Siyosiy xoslangan perifrazalar lingvopragmatik tahlili .....	52
Kobilova Aziza Baxriddinovna, Abbas Nasullaev. Linguaculturologic aspect of metaphors .....	55